

Virusologiya ITI klinik shifoxonasi

12.07.2024-yil
Soat 14:00

Toshkent shaxar.

Shifoxona umumklinik navbatdan tashqari majlis bayoni № 5

Qatnashdilar: Bosh shifokor L.N.Tuychiyev, bosh shifokor muovini M.I.Raxmanov, Bosh xamshira S.Z.Gulyamova, bo'lim mudirlari, shifokorlar, gepatologiya markazi shifokorlari, katta xamshiralar, xamshiralar, xujalik bo'limi xodimlari, laboratoriya xodimlari, endoskopiya xodimlari va boshqa tibbiy xodimlar.

Kun tartibi: SSVning 24.03.2022-yildagi "Tibbiyot xodimlarining odob ahloq Kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi 88-sonli, SanQvaMlari 0342-17-sonli "Shifoxona ichi infeksiyasini profilaktikasi" talablari va O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonuni, SSVning 2024-yil 15-martdagi 77-sonli buyrug'i "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida tibbiyot xodimlari tomonidan dori vositalari uchun retsept yozishda yuzaga kelayotgan korrupsiya holatlarining oldini olish to'g'risi"dagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika sohasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi 2024-yil 23-yanvardagi PF-20-son Farmonining 1-ilova 5-bandi ijrosi va Yunusobod tuman IIB xodimining Kibertahdidlardan ogoh bo'ling mavzulari bo'yicha.

Ma'ruzachi: Epidemiolog shifokor N.K.Mamatov.

SSVning 2017-yil 10-yanvardagi SanQvaMlari 0342-17-sonli "Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi" sanitariya qoida va me'yorlari talablari ijrosini ta'minlash, klinikada kasalxona ichi infeksiyalarini tarqalishini oldini olish xamda unga gumon qilinganda olib borilishi zarur bo'lgan epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini tashkil etish, shuningdek klinikada aniqlangan xar bir shifoxona ichi infeksiyasi xolatlarini chuqur taxlil qilish va ularning sabablarini aniqlash xamda bartaraf etish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shifoxonada vrachlar, o'rta tibbiy xodimlar va kichik tibbiy xodimlarni shifoxona ichi infeksiyasi profilaktikasi bo'yicha ogohliklarini doimiy ravishda oshirib turishliklari, shifoxonada sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, dezinfektsiya va sterilizatsiya rejimining bajarilishini to'g'ri tashkil etishlari tushuntirildi. MZB, laboratoriyalar, bo'limlarda SHII profilaktika qilish maqsadida nazorat olib borish, tekshiruv apparatlari, bokslar, dezinfektsiya qiluvchi kameralarni va xar bir uskunalarni texnik pasportini o'z vaqtida davlat tekshiruvi nazorati, dezinfeksion moddalar, test indikatorlar va bir marotabalik ishlatiladigan tibbiy vositalarni sarflanishini nazorat qilish, shaxsiy gigiyenaga rioya qilish, gemokontakt, ichak, havo-tomchi infeksiyalar bo'yicha bemorlar va xodimlar o'rtasida profilaktik chora-tadbirlar tashkil etish, sanitar yoritish ishlarini kuchaytirish, bir marotaba ishlatiladigan anjomlarni ratsional nazorat qilish, xamma ishlatib bo'lingan tibbiy otxodlarni utilizatsiya qilish, transportirovka va to'g'ri saqlash qoidalariga rioya qilish, xamma tibbiy xodimlar taqdim etilgan sanitar meyoriy xujjatlarga rioya qilish, yuqumli kasalliklar nazorat komissiya a'zolari tomonidan ichki nazoratni ta'minlash maqsadida kechki va ertalabki reydlar uyushtirish, O'z.Res.SSV mutaxassislari tomonidan tasdiqlangan jadvalga

muvofiq tibbiy xodimlar ichida ma'ruza va seminarlar uyushtirish ishlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlarining o'z vaqtida O'zbekiston Respublikasi Virusologiya ITI klinikasi xodimlariga taqdim etilishi, ijrosi o'z vaqtida bajarilishi ustida doimiy nazorat qilish shart bo'lgan chora-tadbirlarini belgilash va ularni ijrosini ta'minlanishini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining amaldagi qarorlari va farmonlarining jamlamasi, xar bir qaror va farmonlar yuzasidan belgilangan chora-tadbirlar va ularning bajarilishi ustidan bajarilgan nazorat dalolatnomalari, qaror va farmonlardan shifoxonada chiqarilgan buyruqlar, Prezident qaror va farmonlari bajarilishini ta'minlovchi shifoxona tuzilish loyixasi "stend", xamda qaror va farmonlarning ruyxati "stend" ko'rinishida yoritilib borilishi tushuntirildi.

Shifoxona ichki buyruqlarining bajarilishini nazorat qiluvchi gurux ichki buyruqlarini xodimlarga taqdim etilishi, ijrosi o'z vaqtida bajarilishi ustida doimiy nazorat qilish shart bo'lgan chora-tadbirlarini belgilash va ularni ijrosini ta'minlash nazorat qilinishini takidlab o'tdi. Virusologiya ITIda gemokontakt infeksiyalarni oldini olish bo'yicha umumiy majlisda ishlab chiqish va muxokama qilish, JSST tavsiyalar va amaldagi SSV xujjatlariga asosan gemokontakt infeksiyalariga qarshi kurashish usullarini amaliyotga tadbqiq qilish va profilaktik choralarni zamonaviylashtirish, qilingan ishlar ustidan nazorat olib borish, xar kvartilda ishchi guruhga infeksiyon nazorat maqsadida majlis tashkil qilish, tibbiy manipulatsiyalar va laboratoriya tekshiruvlar o'tkazilishida yuzaga keladigan favqulotda xolatlarni ro'yxatga olish va ular ustidan nazoratolib borish, yuqumli kasalliklar nazorat komissiyasi a'zolari ish rejasi bo'yicha muolajalarni o'tkazishda ehtiyotkorlikni ta'minlash, teri va shilliq qavat butunligi buzilgan xollarda standart meyorlarni ishlab chiqish va rejaga kiritish, qon va qonni shaklli elementlarini transfuziyada xavfsizlikni ta'minlash va xavfsizlik uchun komissiya doimiy ish faoliyatda ekanligini, Virusologiya ITIda zamonaviy dezinfeksiyalovchi eritmalarni ko'rib chiqish va ishlash uchun kiritish, xamma ishlatib bo'lingan tibbiy otxodlarni utilizatsiya qilish, transportirovka va to'g'ri saqlash qoidalariga rioya qilish, zamonoviy analizatorlarni ishlatish, klinik diagnostik laborator material va texnik bazani yangilash, sterilizatsiya uchun zamonoviy indekatorlar ishlatish, MZBda talabga javob bermaydigan va eskirgan uskunalarni ta'mirlash va almashtirish, MZB xodimlarini avtoklav va boshqa uskunalar bilan ishlash to'g'risida o'z vaqtida malaka oshirish va sertifikat olishini nazorat qilish, yangi ishga qabul qilingan tibbiy xodimlarni shaxsiy gigiyena va infeksiyon nazoratga qaratilgan chora tadbirlar xaqida tushuntirish ishlari olib borish, Virusologiya ITI xodimlarni 07.09.2012-yil 200-sonli buyrug'iga ko'ra tibbiy ko'rikdan o'tkazish, shifoxonaga ishga qabul qilingan yangi tibbiy xodimlarni VGVga uch marotaba emlatish ishlarini olib borish, O'ta xavfli infeksiyalar, infeksiyon parazitlar kasalliklarni aniqlash va ro'yxatga olish, o'z vaqtida xududiy SEOvaJSXga shoshilinch xabar berish, uning ustidan nazorat olib borish ishlari tushuntirildi.

SSVning 2018-yil 27-avgustdagi 542-sonli "Virusli gepatitlarni oldini olish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyruqning ijrosini bo'yicha Virusologiya ilmiy tekshirish institutida virusli gepatitlarni tarqalishini oldini olish maqsadida nazorat qiluvchi ishchi gurux mavjudligi, COVID-19 pandemiyasi davrida cheklash tadbirlarini qo'llanilishi sharoitida davlat organlari va boshqa tashkilotlar, shuningdek tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini tashkil qilish to'g'risidagi vaqtinchalik sanitariya qoida va me'yorlari SSVning SanQvaM 0372-20-sonli tartib guruxlari amaldagi sanitariya epidemiologik tartibini ta'minlash, sovid

19 infeksiyani oldini olish masalalarini ushbu muassasada qay tariqa ta'minlanayotganini nazorat qilish, yuz bergan xar bir yuqumli kasalliklar, ichki infeksiyalar xolatlarini chuqur taxlil qilish va ularning sabablarini aniqlash xamda bu boradagi mavjud xato-kamchiliklarni yo'qotish tadbirlarini belgilash uchun kasalxona ichki infeksiyalarini oldini olishni nazorat guruh ishi va kamchiliklari, O'z.Res. Vazirlar maxkamasining 2004-yil 22-dekabrda 42-sonli "O'zbekiston Respublikasida donorlar qoni va uning tarkibiy qismlari xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi qaroridan ko'chirmasini bajarishda nazorat guruxi ishi, SSVning 2016-yil 10-avgustda 352-sonli buyrug'iga muvofiq bemorlarga OIV, virusli gepatitlarning V,S,D turlari markerlariga va jinsiy aloqa orqali yuqadigan kasalliklarga tekshirilmagan donor qoni va ularning tarkibiy qismlarini to'g'ridan to'g'ri qo'yish qat'iyan ta'qiqlanishi, xayotiy zaruriyat tug'ilgan bemorlarga donorlar qoni yoki uning tarkibiy qismlarini qo'yish faqat donorlar qoni qo'yishini xal etuvchi xay'atning qarori asosida amalga oshirilishi, tungi vaqtlarda esa bu vazifa javobgar navbatchi shifokor zimmasiga yuklatilishi,SSVning 352-sonli buyrug'i asosida klinikada qon va qon preparatlarini ishlatilishni zaruriyligini asoslash va rejalashtirish uchun shifoxonada qon va qon preparatlarini ishlatilishni nazorat qilish guruxi ishi, xayotiy zarurat tufayli qon preparatlariga extiyoj sezilganda, qon preparatlari zudlik bilan tashkil etilishi, klinikaga qon va qon o'rnini bosuvchi preparatlarni olib kelish tartibi OITS xamshirasi S.S.Abduvosilova zimmasiga yuklatilganligi,bosh xamshira S.Z.Gulyamova xar bir tibbiy muolaja o'z vaqtida, bemor ko'z oldida, tibbiy qo'lqop kiyilgan xolda bajarilishini va tibbiy muolajalarning bajarilishi, ro'yxati va daftar xisoboti nazorati yuklatilishi, shifoxonada ota-onalardan bolalari uchun qon va uning tarkibiy qismlarini boshqa shifoxonalar, dorixonalardan (Qon preparatlari ishlab chiqarish korxonasidan tashqari) sotib olib kelinishiga qat'iyan man etilishi, shifoxonada qon qo'yishni xal etuvchi Xay'at ishi o'rnatilgan tartibda talab darajasida olib borish ta'minlanishini, SSVning 2019-yil 2-aprelda chiqqan 92-sonli "Davolash-profilaktika muassasalarida infeksiyon nazorat komissiyasi to'g'risida Nizomni tasdiqlash xamda komissiya faoliyatini takomillashtirish haqida" buyrug'i bajarilishi bo'yicha shifoxona ichki infeksiyalarini oldini olish bo'yicha infeksiyon nazorat komissiyasi tuzilishini, shifoxona ichki infeksiyasining oldini olish tadbirlarini bajarish bo'yicha ish rejasi ishlab chiqilishini, sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar, dezinfeksiya va sterilizatsiya rejimlari bajarilishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilishini, klinikada ichki infeksiyalarni aniqlash va ro'yxatga olish bo'yicha doimiy ravishda operativ va retrospektiv taxlil olib borilishini, xar oyda bemorlarda o'tkazilgan parenteral muolajalar doimiy xarakatda komissiya tomonidan o'rganilishi nazoratga olinishini, xar bir tibbiy xodim ishga kirishdan oldin va ish davomida shifoxona ichki infeksiyalari profilaktikasi xamda infeksiyon nazorat masalalari bo'yicha o'qitilishini, klinikada shifoxona ichki infeksiyalarining oldini olish bo'yicha sanitariya-gigiyena va epidemiyaga qarshi chora-tadbirlarni to'liq bajarilishiga sovuqqonlik bilan yondoshgan xodimlarga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan intizomiy choralar ko'rilishini tushuntirildi.

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-sonli Qonuni haqida tushuntirish ishlari olib borildi va Respublika muassasa tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar, Oliy ta'lim muassasalari xamda boshqa tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi

tomonidan xar chorak yakuniga ko'ra soxada korrupsiyaviy xolatlar reytingini baxolash yuzasidan taxliliy o'rganishlar amalga oshiriliyotganligi, soxada mavjud muammolar yuzasidan fuqarolarning murojaatlari, ijtimoiy so'rovlar, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish va taxlil qilish xamda boshqa shu kabi yo'nalishlar orqali tizimni baxolash reytingi yo'lga qo'yilganligini, xodimlar tomonidan sodir etilgan xar bir ta'magirlik, poraxurlik va korrupsiyaga oid xolatlar axoli xamda jamoatchilik orasida salbiy fikrlarni yuzaga kelishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida SSVning reyting bahosini kamayishiga sabab bo'lishi to'g'risida tushuntirdi. Kelgusida yuqorida qayd etilgan salbiy xolatlariga yo'l qo'yan xodimlar xamda ma'sul raxbarlar lavozimidan ozod etilishigacha bo'lgan qat'iy intizomiy jazo choralari ko'rilishi xaqida ogoxlantirildi.

Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar rejasiga muvofiq ichki nazorat mexanizmini kuchaytirish maqsadida, shifoxonada korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha nazoratni kuchaytirish, bu borada tibbiyot xodimlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, xujjatlar bilan ishlash va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xar chorakda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga ma'lumotlar taqdim etib borilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha reyting baxolash yo'lga quyilganligi tushuntirildi.

SSVning 2024-yil 15-martdagi 77-sonli buyrug'i "Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida tibbiyot xodimlari tomonidan dori vositalari uchun retsept yozishda yuzaga kelayotgan korrupsiya xolatlarining oldini olish to'g'risi"da, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Farmatsevtika soxasini tartibga solish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risi"dagi 2024-yil 23-yanvardagi PF-20-son Farmonining 1-ilova 5-bandi ijrosini ta'minlash bo'yicha ma'lumot va ijro uchun qabul qilinganligini, SSVning "Tibbiyot tashkilotlarida dori vositalarini tayinlash, xalqaro patentlanmagan nomlanishi bo'yicha retseptlarni rasmiylashtirish hamda bemorning dori vositalarini qabul qilish, saqlash va qo'llash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2020-yil 1-iyuldagi 121-sonli buyrug'i (Adliya vazirligidan 2020-yil 1- iyulda 3277-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) mazmun mohiyati bo'yicha targ'ibot tadbirlari olib borilishini va ikki hafta muddatda shifokorlar tomonidan retseptlarning yozilishida qonunchilikda belgilangan talablarga qat'iy amal qilish, tibbiyot xodimlarini farmatsevtika tashkilotlari va dorixonalar tomonidan moddiy va nomoddiy rag'batlantirish holatlarining oldini olishga doir tadbirlar amalga oshirilishini, har chorak yakuni bo'yicha tibbiyot xodimlari tomonidan dori vositalari uchun retsept yozishda korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida amalga oshirilgan targ'ibot tadbirlari hamda aniqlangan holatlar bo'yicha ma'lumotlarni SSVga berilishini, Tibbiyot tashkilotlarida retsept yozishda quyidagi talablarga rioya qilinishini ya'ni bemorga majburiy tartibda xalqaro patentlanmagan nom bo'yicha retsept yozish, bemorga tayinlangan dori vositalari (xalqaro patentlanmagan nomi, bir kunlik dozasi, qabul qilish yoki yuborish usuli, miqdori, davomiyligi va boshqalar) uning tibbiy hisob hujjatlarida (kasallik tarixi, ambulatoriya kartasi) qayd qilinishi va bevosita davolovchi shifokor tomonidan imzolash, bemorga dori vositalari va (yoki) ektemporal usulda tayyorlanadigan dori vositalarini davolovchi shifokor tomonidan imzolanadigan qog'oz ko'rinishidagi retsept blankasi yoki elektron retsept shaklida rasmiylashtirishini bemorlarga dori vositalarini tayinlash tashxis qo'yish va davolash

standartlari asosida bir martali, kunlik va kurs dozalarini aniqlash orqali kasallikning turi, og'irligi va xususiyatiga hamda bemorning yoshi va dori vositalarini tibbiyotda qo'llanishiga doir yo'riqnomada ko'rsatilgan dorilarining o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda davolovchi shifokor tomonidan amalga oshirishligini, tibbiyot xodimlari tomonidan bemorlar uchun retseptlar yozish qat'iyan SSVgi tomonidan tasdiqlangan retsept blankalarida o'rnatilgan tartibga muvofiq amalga oshirilishi ta'minlanishini, oddiy qog'ozlarda (farmatsevtik firmalar tomonidan berilgan bloknot varaqlarida) retsept yozish qat'iy ravishda ta'qiqlanishini eslatib o'tdi. Korrupsiyani oldini olish va qarshi kurashish ichki nazorat bo'limi tibbiyot xodimlari tomonidan dori vositalari uchun retsept yozishda aniqlangan korrupsiya holatlari bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib, tahlil qilib borish hamda korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida ko'rsatmalar berib borilishi yana bir bora eslatib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5429-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan Davlat dasturi xamda Sog'liqni saqlash vazirligining 2019-yil 18-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi buyrug'i, SSVning 2023-yil 5-iyuldagi №17567-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi xavfsizlik kengashi kotibining 2022-yil 28-iyundagi №11-RA-1-5729-sonli topshiriq xati ijrosini ta'minlash yuzasidan ko'rsatma xati, Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2023-yil 7-avgustdagi №12/40-10677-sonli ko'rsatma xatlari, 2022-yil 12-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-81-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurash ishlarining samaradorligini reytingini baxolash tizimini joriy etish to'g'risida" qarorining bajarilishi, Respublika muassasa tashkilotlari va ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markazlar, Oliy ta'lim muassasalari xamda boshqa tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan xar chorak yakuniga ko'ra soxada korrupsiyaviy xolatlar reytingini baxolash yuzasidan taxliliy o'rganishlar amalga oshiriliyotganligi, soxada mavjud muammolar yuzasidan fuqarolarning murojaatlari, ijtimoiy so'rovlar, ijtimoiy tarmoqlarni kuzatish va taxlil qilish xamda boshqa shu kabi yo'nalishlar orqali tizimni baxolash reytingi yo'lga qo'yilganligini, xodimlar tomonidan sodir etilgan xar bir ta'magirlik, poraxurlik va korrupsiyaga oid xolatlar axoli xamda jamoatchilik orasida salbiy fikrlarni yuzaga kelishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida SSVning reyting baxosini kamayishiga sabab bo'lishi to'g'risida tushuntirdi. Kelgusida yuqorida qayd etilgan salbiy xolatlariga yo'l qo'ygan xodimlar xamda ma'sul raxbarlar lavozimidan ozod etilishigacha bo'lgan qat'iy intizomiy jazo choralari ko'rilishi xaqida ogoxlantirildi.

Sog'liqni saqlash sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlar rejasiga muvofiq ichki nazorat mexanizmini kuchaytirish maqsadida, shifoxonada korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha nazoratni kuchaytirish, bu borada tibbiyot xodimlari o'rtasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish, xujjatlar bilan ishlash va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xar chorakda SSVga va Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga ma'lumotlar taqdim etib borilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha reyting baxolash yo'lga quyilganligi tushuntirildi.

Yig'ilishda barcha xodimlariga tegishli tavsiyalar berildi va bo'lim mudirlariga xar bir xodim bilan tushuntirish ishlarini olib borish, bo'limda yuzaga keladigan xolatlar bo'yicha javobgarligi tushuntirildi.

Toshkent shaxar Yunusobod tuman IIB xodimi tomonidan o'tkazilgan Kibertahdidlardan ogoh bo'ling mavzusidagi ma'ruza va savol javoblar institut xodimlari tomonidan qiziqish bilan tinglandi va kerakli xulosalar olindi, shunga o'hshash tadbirlar kelgusida o'tkazilishi kelishib olindi.

Bosh shifokor muovini

Epidemiolog shifokor


Bosh xamshira



M.I.Raxmanov



N.K.Mamatov



S.Z.Gulyamova





